

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-mart*



ANDIJON VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **3 338,2** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **15,4** ming kishiga yoki **100,5 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 742,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **52,2 %**), qishloq aholisi soni **1 595,7** ming kishi (**47,8 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 338,2 ^{ming} kishi

Tabiiy o'sish

+15,4 ^{ming} kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



52,2%

Qishloq



47,8%


Aholining tabiiy harakati, kishi

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	18 723	19 351	628	23,3	23,6
O'lganlar	3 540	3 516	-24	4,4	4,3
Nikohlar	4 521	3 669	-852	5,6	4,5
Ajralishlar	1 239	1 485	246	1,5	1,8
Ko'chib kelganlar	1 700	1 509	-191	2,1	1,8
Ko'chib ketganlar	2 054	1 916	-138	2,6	2,3

Andijon viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2023- yil yanvar-mart




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni 2023- yil 1- aprel holatiga



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **32,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,2 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,3 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo'yicha aholi tarkibi


2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga Andijon viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **204,9 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **61,3 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **187,8 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **66,7 ming kishini** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- aprel holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-aprel holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 268 357	3 338 150	102,1
shaharlar:			
Andijon	460 688	470 486	102,1
Xonobod	44 189	45 235	102,4
tumanlar:			
Oltinko'l	185 598	189 987	102,4
Andijon	275 268	281 397	102,2
Baliqchi	207 904	212 232	102,1
Bo'ston	75 050	76 556	102,0
Buloqbo'shi	147 623	150 468	101,9
Jalaquduq	192 304	196 006	101,9
Izboskan	246 459	251 419	102,0
Ulug'nor	62 058	63 256	101,9
Qo'rg'ontepa	223 005	226 876	101,7
Asaka	341 683	349 117	102,2
Marhamat	179 580	183 271	102,1
Shahrixon	311 448	318 714	102,3
Paxtaobod	200 700	205 217	102,3
Xo'jaobod	114 800	117 913	102,7

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Andijon viloyatida 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **7,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **7,6** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahrida **67,2** kishi, Xonobod shahrida **22,6 kishi** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Bo'ston tumanida **3,8** kishi, Ulug'nor tumanida **1,5** kishini tashkil etgan.

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti (%)

2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yilning yanvar - mart oylarida tug‘ilganlar soni 19 351 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (18 723 kishi) nisbatan 628 taga kamaydi, Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 0,3 promilleda o‘shish bo‘lgan.

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi



Yanvar-Fevral

Erkaklar **6 413** Ayollar **6 070**



Mart

Erkaklar **3 542** Ayollar **3 326**




Yanvar -Mart

Erkaklar **9 955** Ayollar **9 396**



O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi


2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **71,8 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **5,6 %** i – o‘simtalardan, **4,0 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **3,3 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,0 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,8 %** i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **11,5 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


VAFOT ETGANLAR

Vafot etganlarning taqsimlanishi






Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, kishi



2023- yil yanvar – mart oylarida 3 516 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi.



QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi

Yanvar-Fevral

Shahar
1 227




Qishloq
1 277



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik



Mart

Shahar
571



Qishloq
594



Yanvar-Mart

Shahar
1 798



Qishloq
1 871



Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Qo'rg'ontepa tumanida (0,2 promillega) kuzatildi.

Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Jalaquduq tumanida (1,9 promillega), Bo'ston tumanlari (1,7 promillega) va Andijon shaharda (1,7 promillega) kuzatildi




NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-mart, birlik



■ Ajrim, birlik ■ Ajrim koeffitsiyenti, promille

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar-Fevral

Shahar
540

Qishloq
407



Mart

Shahar
307

Qishloq
231



Yanvar-Mart

Shahar
846

Qishloq
639




2023- yil yanvar-mart oylarida **1 485** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-mart oylarida **1,5** promille bo'lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-mart

farzandsiz ajrashgan



1 nafar
farzand
bilan
ajrashgan

2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2023- yil yanvar-dekabr oylarida Andijon viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **65,4 %** i farzandsiz, **21,4 %** i bitta farzand bilan va **13,2 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(yanvar - mart)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Viloyat bo'yicha	1700	1509	2054	1916	-354	-407
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	457	361	496	439	-39	-78
Xonobod	51	65	29	48	22	17
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	134	125	120	78	14	47
Andijon	316	204	220	200	96	4
Baliqchi	69	49	91	121	-22	-72
Bo'ston	57	40	40	47	17	-7
Buloqboshi	51	34	78	86	-27	-52
Jalaquduq	78	60	148	145	-70	-85
Izboskan	4	21	137	126	-133	-105
Ulug'nor	9	17	35	34	-26	-17
Qo'rg'ontepa	62	117	129	144	-67	-27
Asaka	75	97	134	116	-59	-19
Marhamat	58	31	91	102	-33	-71
Shahrixon	45	58	133	102	-88	-44
Paxtaobod	94	44	105	67	-11	-23
Xo'jaobod	140	186	68	61	72	125

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar

organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovlarni qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 74 228-30-54